

G‘AFUR G‘ULOM HIKOYALARIDA SO‘Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI

Nodira Hamidova
TerDPI o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada G‘afur G‘ulom hikoyalarida so‘z ijodkorligining lisoniy-kognitiv tahlili haqida fikr yuritilgan. Muallif yozuvchi hikoyalarining matnini til uslubiga xos badiiy ifodalarni tadqiq qilish orqali yozuvchining milliy til elementlaridan mahorat bilan foydalanishga badiiy tasvirni individual hissiyotni konkret detallar bilan berishga erisha olganligini dalillagan.

Kalit so‘z va iboralar: G‘afur G‘ulom, hikoya, so‘z qo‘llash uslubi, so‘z ijodkorligi, lisoniy-kognitiv tahlil, obrazlilik, badiiy ifoda, individual hissiyot, konkret detal.

Dunyo lingvistikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlarning so‘z qo‘llash mahorati natijasida til yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Ayni paytda muallif so‘z ijodkorligini ifodalovchi lisoniy vositalar muallifning til va tilshunoslik qonuniyatlaridan xabardorlik darajasini, ijodiy uslubining o‘ziga xos jihatlarini ham ko‘rsatadi. Hozirgi o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni tahlil qilish, ijodkorning poetik mahoratini yoritishda jahon tilshunosligining turli tadqiqot metodlari asosida yondashuv sezilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda badiiy adabiyotni ijodiyindividual uslub nuqtai nazaridan tadqiq etish borasida jiddiy yutuqlarga erishildi.

Badiiy matnda yangi so‘zning funksional-estetik belgilanishi nisbatan kommunikativ-kognitiv yondashuvda matnni tashkil qiluvchi onomasiologik, kognitiv va so‘z yasalishini hisobga olgan holda aniqlanadi. Ma’lumki, til muallifning ijodiy individualligi namoyon bo‘lishiga xizmat qiluvchi vositadir. Bu esa, o‘z navbatida, ijodkordan tildan foydalanishda, individual yangi so‘z hosil qilishda, so‘zga yangi ma’nolar yuklashda ulkan mas’uliyat talab qiladi.

G‘afur G‘ulom hikoyalarida har bir so‘zni, iborani o‘rnnli qo‘llab voqea tafsilotn, qahramon hatti-harakati, uning ismi-sharifi, joy nomi, manzara tasvirlarida aniqlik bo‘lishi bilan birga chuqur badiiylik ustunlik qilgan. Bunda barcha uchun umumiy, kundalik hayotda zarur narsa va hodisa tafsilotlarini anglatuvchi so‘zlar xalq jonli tili asosida badiiy ifodalangan.

“Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida “uyqusi qochgan buvi” bilan tasodifiy shaxs - “o‘g‘ri bola” bilan orasidagi ancha uzun nutqiy muloqotida qaysi so‘zni

qo‘llamasin, qanday iboradan foydalanmasin, ularniig hammasini aniqlik va konkretlik hosil qilishga bo‘ysundirgan.

– *O‘g‘rigina bolam, hoy o‘g‘rigina bolam, hoyna hoy biror tiriklikning ko‘yida tomga chiqqan ko‘rinasan, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo‘lmaydimi, - debdilar.*

O‘g‘ri tomdan turib:

– *Axir, buvijon, siz ham birorgina kecha tinchingizni olib uxlasangiz bo‘lmaydimi, bizning tirikchiligimizning yo‘lini to‘saverasizmi? – debdi [1, 353-b].*

Yozuvchi asosan umumxalq o‘zbek tili leksikasi va jonli so‘zlashuv tiliga xos so‘zlardan mahorat bilan foydalana olgan. Asar ruhiga mos so‘zlashuv dialoglar undagi bir xil takroriy so‘zlar ijodkor tomonidan personajlarning majoz tabiatiga, xarakteriga mos usullarni topa olgan.

Yozuvchi individual nutq sifatlashlarini biror narsa va hodisani obrazli gavdalantirish, bir turdagi predmetlarning o‘ziga xos ayrim belgi, xususiyatlarini yorqinlashtirish maqsadida qo‘llaydi.

Salbiy emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega so‘zlar: “Xudoyo urushi boshiga yetsin”, “eshakday-eshakday itlari, maxluqlari”, “qurg‘ur” [1, 350-358-b] va boshqalar.

Yuqorida sanab o‘tilgan emotsionallikni ifodalovchi so‘zlar qahramonlarning xarakterini ochib berish maqsadida uslubiy vosita vazifasini bajaradi.

G‘afur G‘ulom o‘z asarlarida qaysi so‘zni qo‘llamasin, qanday iboradan foydalanmasin, ularning hammasini aniq tasavvur hosil qilishga bo‘ysundiradi, asari tilida emotsional bo‘yoqdor so‘z va so‘z birikmalarining asosiy qismini erkalash leksikasi tashkil etadi. Hikoyada ham xuddi shunday: “o‘g‘rigina bolam”, “aylanay”, “buvim tushmagur”, “so‘qqaboshgina tog‘a” [1, 350-358-b].

Yozuvchi hikoyalarini o‘qish jarayonida o‘sha davrga sayohat qilib, erkalanish, mehr-oqibat, odamiylik, shukronalik, sabru qanoat kabi tuyg‘ulari yuksak o‘rin tutganligini his qilasiz. “*Biz to‘rt yetimdan xabar olib turishga katta onam — onamning onalari Roqiyabibi kelib turibdilar. Bu kishini biz erkalab “Qora buvi” deb ataymiz*” [1, 352-b].

G‘afur G‘ulom asarlari leksikasiga e‘tibor berilsa, jamiyat tarixi bilan bog‘liq muhim hodisalarni tasvirlashda eskirgan so‘zlarni o‘rinli ishlatganligi, undan mahorat bilan foydalanganligi ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, “to‘rtburchak tanobi hovli”, “to‘nini turmuchlab”, “qut-loyamut”, “sirach”, “shon-u so‘zan”, “movoza qildi”, “obiyo‘vg‘on”, “g‘ulomgardish”, “egilik”, “qumg‘on”, “zog‘ora” [1, 350-358-b] va boshqa shu kabilar.

O‘quvchi, asarni o‘qib chiqqach, hikoyani sarlavhasiga haqida mushohada qilib, nega “o‘g‘rigina bolam” deyilganiga javob topadi. Hikoyaning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, o‘shanday og‘ir kunlarda ham xalqimizning odamiylikni, mehr-oqibatni saqlab qolishi, insonparvarligi dalil topganligidir

Kampir yetim bolalar bilan qiynalib yashayotgan bo‘lsa-da, “o‘g‘ri”ga qozonni hadya qilmoqchi bo‘lishi, hatto unga choy damlab bermoqchi bo‘lishini tasvirlash ham o‘zbekona mehmondo‘stlikdan dalolatdir.

“– Oshxonada bir zamonlar bog‘dan kelgan bir-ikkita yong‘oq to‘nka bor. Boltani olib shuning bir chekkasidan ozgina uchirib ber, qumg‘on qo‘yaman... choy ichamiz.

– Yo‘g‘a, buvi, to‘nka yorib-ku, berarman, ammo choy icholmayman, chunki kun yorishib qolsa, meni tanib qolasiz. Juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo‘q, andisham bor, uyalaman” [1, 356-b].

G‘afur G‘ulomning turli mavzularda yaratilgan hikoyalarida o‘zbekcha so‘zlar nafaqat jilolanadi, balki yasaladi, yaratiladi, nozik ifodalar bilan xalq qalbiga qaytadan kirib boradi.

“G‘afur G‘ulom Sharq poeziyasidan qanday bahra olgani, undan nimalarni olganini sanaydi: “... undagi teran insoniylikni, gumanizmni, falsafiy chuqurlikni o‘zlashtirdi... Asarlarining yuksak nafosatini, poetik mushohadadagi teranlikni, so‘z ishlatishdagi san‘atkorlikni, mubolag‘alarning hadsizligini, o‘xshatish va sifatlashlarning aniqligini o‘ziga singdirdi”, -deb yozgan edi munaqqid O.Sharafiddinov.

Xulosa, keltirilgan ilmiy-nazariy fikrlardan kelib chiqadiki, ijodkor individual uslubi uning o‘ziga xos tafakkur tarzi, keng jabhali bilim darajasi va olamni anglashga intiladigan ruhiy olami bilan bog‘liq holatda shakllanadi, bu esa ijodkorning so‘z boyligi va ifoda konseptlarini kognitiv tahlil qilish ehtiyojini keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Turkiy adabiyot durdonalaridan. G‘afur G‘ulom. -T: «O‘zbekiston», 2022, 403 b.
2. G‘ulom G‘afur. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n ikki tomlik. 5-tom.- Toshkent: Fan. 1986.
3. Karimov N. G‘afur G‘ulom ijodiyoti, – T.: «Fan», 2003.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Timurid princess The image of time and spirit in the image of Saraymulkhanim. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 84–87.
5. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. PEDAGOGS, 46(1), 57–62.
6. Сайфуллаев Нажибулло. (2023). ТЕРМИНЫ – НЕОТЪЕМЛЕМОЕ БОГАТСТВО НАШЕГО ЯЗЫКА. PEDAGOGS, 46(1), 67–69.
7. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojiviy taqdirlari tasviri. Journal of Universal Science Research, 1(5), 1291–1298.

8. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA‘ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. *PEDAGOGS*, 56(2), 31–34.
9. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 2(1), 301–304.
10. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
11. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 80–83.
12. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
13. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42)).
14. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
15. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
16. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.
17. Shoabdurahmonov Sh. Mohir so‘z san‘atkori. O‘zbek tili va adabiyoti. 1973,4 - son. 15-b.